

O'zbekiston Prezidenti Qo'shilmalik harakati sammitida ishtirok etadi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning taklifiga binoan 1-2-mart kunlari amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo'ladi.

Boku shahriga tashrif doirasida davlatimiz rahbari Qo'shilmalik harakati sammitining yalpi sessiyasida ishtirok etishi ko'zda tutilgan.

Ozarbayjon tomonining raisligida o'tadigan tadbir kun tartibidan pandemiya oqibatlarining ta'siri saqlanib qolayotgan hamda xalqaro xavfsizlik va barqarorlikka xavf-xatar va tahdidlar kuchayib borayotgan sharoitda ko'p tomonlama muloqotni rivojlantirish va amaliy hamkorlikni kengaytirishning dolzarb masalalari o'rin olgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston yetakchisi Ozarbayjon Prezidenti bilan uchrashib, ilgari erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish masalalarini muhokama qilishi rejalashtirilmoqda.

Ta'kidlash joizki, Qo'shilmalik harakati harbiy-siyosiy bloklar va tashkilotlarda ishtirok etmaslikni hamda hamkorlikni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomining prinsip va maqsadlari asosida rivojlantirishni o'z tashqi siyosatining asosiy etib e'lon qilgan 120 ta ishtirokchi davlatni birlashtirgan eng yirik xalqaro tuzilmalardan biri hisoblanadi.

Manba